**“TASDIQLAYMAN”**
Oʻzbekiston Respublikasi
Bandlik va mehnat munosabatlari
vazirining birinchi oʻrinbosari
__________ E.M.Muxitdinov

Oʻzbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi markaziy apparati tomonidan tovarlarni xarid qilish (ishlar, xizmatlar koʻrsatish) tartibi toʻgʻrisida Nizomning 2-ilovasiga asosan doimiy faoliyat yurituvchi Komissiya yigʻilishining

**_____-sonli yigʻilish bayoni**

«___» «__________»2022 yil                                        Toshkent shahri

**KUN TARTIBI**

Oʻzbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, Tashkiliy va ijro intizomi nazorati boshqarmasi (M.Toʻrabekov) tomonidan, yuridik va jismoniy shaxslarning murojaatlarini samarali va sifatli koʻrib chiqish maqsadida 24 soat davomida koʻngʻiroqlarga javob beruvchi ishonch telefonlarini tashkil qilish uchun, Jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlari bilan ishlash sifatini oshirish maqsadidi, Vazirning birinchi oʻrinbosari E.M.Muxitdinovga yozilgan maʼlumot (bildirgi)ni koʻrib chiqish.

---

(Umurzakov, Abdukarimov, Toshmatov, Axmadaliyev, Toʻrabekov, Pulatova, Malikov, Jumayeva, Umurzakov)

Komissiya raisi kun tartibiga qoʻyilgan masalalar bilan xarid komissiyasi aʼzolarini tanishtirib chiqdi.

Shundan soʻng, kun tartibidagi masala boʻyicha Tashkiliy ijro intizomi boshqarmasi (M.Toʻrabekov) tomonidan oʻrinbosari E.M.Muhitdinovga yozilgan maʼlumoti (bildirgi)ni Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 23-iyul kungi kengaytirilgan tarzda oʻtkazilgan selektori yigʻilishida berilgan topshiriqlari *(2021-yil 30-iyuldagi 02-PA 1/1-1247-son 38-yigʻilish bayoni)* ijrosini taʼminlash Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligiga Jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlari bilan ishlash sifatini oshirish hamda fuqarolardan tushayotgan savollarga tez va qulay tarzda javob berish uchun 2022-yil **Call-center** tashkil qilish maqsadida https://xarid.uzex.uz platformasi orqali xaridga qoʻyilishini komissiya aʼzolariga tanishtirib chiqildi.

Oʻzbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligiga, Jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlari bilan ishlash sifatini oshirish hamda fuqarolardan tushayotgan savollarga tez va qulay tarzda javob berish maqsadida 2022-yil uchun **Call-centr** tashkil qilish hamda https://xarid.uzex.uz platformasi orqali “Eng yaxshi taklif”ni tanlash oʻtkazish boʻyicha eʼlon qilishiga komissiya aʼzolari tomonidan bir ovozdan maʼqullandi.

Komissiya aʼzolari kun tartibidagi masala yuzasidan:

## QAROR QILADI

1. O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonuni hamda Xarid qilish tartibi-taomillarini tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risidagi Nizom asosida ishlab chiqilgan xarid komissiyasi a'zolariga etkazilgan, Tashkiliy ijro intizomi boshqarmasi (M.To'rabekov)ni ma'lumot (bildirgi)si xarid xujjati to'plami belgilangan tartibda tasdiqlansin.

2. Xaridga qo'yiladigan O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, Jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlari bilan ishlash sifatini oshirish hamda fuqarolardan tushayotgan savollarga tez va qulay tarzda javob berish maqsadida 2022-yil uchun **Call-center** tashkil qilish maqsadida, Davlat xaridlari Qonuning 26-moddasi Davlat xaridlari qiymatini baholashga taaluqli qoidalar Davlat xaridlari qiymatining bozor narxlariga muvofiqligini baholash uchun davlat buyurtmachisi ochiq axborot manbalaridagi ma'lumotlardan foydalanishi ko'rsatilganligi asos qilib olinsin.

3. Xarid savdolarini o'tkazish komissiyasining "Eng yaxshi taklif"ni tanlash savdolari orqali o'tkazish to'g'risidagi Qaror Respublika tovar-xom-ashyo birjasining https://xarid.uzex.uz platformasida boshlang'ich narxi xaridlar qiymatini baholashga taaluqli qoidalar internet tarmoqlaridagi maxsus veb-saytlar, internet magazinlar, tijorat takliflarini inobatga olib boshlang'ich narxni 350 000 000,00 (uch yuz ellik million) so'm belgilab e'lon qilinsin.

4. Tashkiliy va ijro intizomi nazorati boshqarmasi (M.To'rabekov)ga:

-maxsus axborot portalida joylashtirilgan ishlar xizmatlar bo'yicha qo'yilgan talablar asosida ko'rsatilgan ishlarni to'liq va sifatli bajarilishini nazorat qilish hamda qabul qilib olish vazifasi topshirilsin.

5.Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi, tizim tashkilotlarida xaridlarni muvofiqlashtirish bo'limi (B.Pardayev)ga;

-tashkiliy va ijro intizomi nazorati boshqarmasi malumoti (bildirgisi) boshlang'ich narxlari va texnik parametrlari asosida belgilangan muddatda https://xarid.uzex.uz platformasidagi "Eng yaxsh taklif"larni tanlash savdolari o'tkazilishi bo'yicha e'longa berilsin.

**Komissiya kotibi** **B.Pardayev**

**Ma'qullandi:**

| | |
|---|---|
| B.Umurzakov | Vazir o'rinbosari |
| N.Yakubov | Vazir o'rinbosari |
| M.Mirzayeva | Matbuot kotibi |
| A.Toshmatov | Boshqarma boshlig'i |
| A.Abdukarimov | Yuridik bo'lim boshlig'i |
| A.Egamov | Boshqarma boshlig'i |
| T.Malikov | Boshqarma boshlig'i |
| B.Axmadaliyev | Bosh hisobchi |
| M.Pulatova | Moliyaviy-nazorat bo'limi boshlig'i |
| D.Temirov | Komplayens-nazorat bo'limi boshlig'i (vvb) |
| Sh.Aglamov | Tizim tarmoq administratori |